

ETNIK-MADANIY TARBIY- BOLA SAXSINI KAMOL TOPTIRUVCHI VOSITA

Guljahan Erkinjonova

Qo'qon Universiteti “Ta’lim” kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotida xalq og'zaki ijodining o'rni, bunda folklorizmlardan unumli foydalanish, masal, ertak, rivoyat janrlari stilizatsiyasi tufayli masal ertak, she'riy adabiy ertak, naql ertak singari oraliq shakllari haqida tahliliy misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** masal ertak, she'riy adabiy ertak, naql ertak, oraliq shakllar, ballada, she'riy rivoyat, doston, masalnavislik, xalq og'zaki ijodi janrlari.

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonining hozirgi bosqichida xalqlar hayotiga yangi an'analar kirib kelayotganligi taraqqiyotini ta'min etish bilan birga xalqlarning etnik-madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish muammosini ham vujudga keltirmoqda. Ammo shuni unutmaslik kerakki eng yaxshi madaniyat bu jahon tajribasini o'zlashturush bilan birga o'z xalqining etnik madaniyatini ham saqlab qolishdir. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, ko'p millatli O'zbekistonda aholining eng yaxshi etnik qadriyatlari va urf-odatlarini saqlab qolish va ularni avloddan-avlodga yaetkazishda ta'lim-tarbiya maskanlarining o'rni beqiyos. Maktabgacha yoshdagi bolalarni avlodimizning, xalqning, milliy an'analari va madaniyati asosida tarbiyalashni nazarda tutuvchi etnopedagogik yondashuvni to'g'ri yo'lga qo'yish lozim.

Bunda quyidagi muammolarni o'rgangan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchidan, milliy madaniyatlarning boyligi, jumladan, yosh bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashuvini ta'minlash borasidagi xalqimizning pedagogik tajribasi va uni ta'limtizimiga keng joriy etish; ikkinchidan, ko'p madaniyatli muhitda mavjud bo'lgan ta'limalohiyati va bolalarning etnik-madaniy kompetensiyasini shakllantirish sharoitida ta'limtashkilotlari faoliyatida ulardan yetarlicha foydalana olis; uchinchidan, ta'limmazmunida etnik-madaniy kompetensiyani rivojlantirishga e'tibor qaratish zarurati va bu muammoni hal qilish uchun pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalana olish masalasi, ya'ni, pedagog-tarbiyachilarning o'zlarida etnik-madaniy kompetensiyani shakllantirishning obyektiv talabi va ularning ko'p millatli ta'lim muhitida ishlashga tayyorligini ta'minlash.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun ta'linda bilim va texnologiyalarning birligi: ta'lim jarayonini shakllantirish nazariy, uslubiy, tashkiliy, mazmuning asosi ko'p millatli ta'lim muhitida bolalarning etnik-madaniy kompetensiyasiga egalik bilan belgilanadi. Ushbu kompetensiyaviy yondashuvining samarasi ko'p millatli ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik-madaniy kompetensiyasini



shakllantirishda namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda etno-madaniy ta'lim jarayoni subyektlarini – o'z-o'zini rivojlantirishga, murakkab vaziyatlarda, do'stona munosabatda o'zaro muloqotda bir-biriga ijobiy ta'sir qiluvchi tizimlardan foydalanish ko'nikmalarini kamol toptiradi; aksiologik, ya'ni, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida insonparvarlik qarashlarni shakllantirish imkoniyati ham katta bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar bilan olib boriladigan etno-madaniy ishlarda, ularga har qandaay jamiyatda inson eng yuqori qadriyat ekanligini, hatto ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch ekanligini tushuntirib borish orqali boshqa millatlarning etnik xususiyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini tushuntirish maqsadga muvofiqdir . Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatar ekanmiz ular o'rtasida bir-birlarini etnik-madaniy xilma-xillikka ajratish deyarli yo'qligini inobatga oladigan bo'lsak, ular o'rtasidagi o'zaro ijobiy munosabatlarga madaniy bag'rikenglik tamoyili asosida yondashish talab etiladi. Ushbu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonda mashg'ulotlarning etnik yo'naltirilgan shakllaridan, maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik madaniy ongi va bag'rikenglik darajasini yanda takomillashtirishga qaratilgan innovatsion usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik-madaniy xilma-xillikka, madaniy muvofiqlikka o'rgatishning uzluksizligi va izchilligiga (oiladagi etnik tarbiya), dialoglar, monologlar, fanlararo integratsiya, ko'p tillilik tamoyillariga ijobiy munosabatda bo'lishni amalga oshirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarliktuyg'ulari kamol toptiriladi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik-madaniy bilimlarini takomillashtirishda ijtimoiy-madaniy muhit imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayoni subyektlari o'rtasida bir-birini anglash va tushunish orqali bolalarda madaniy, ma'rifiy qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'zaro birdamlik ruhida tarbiyalanadi.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim mazmunini bolalarning etnik-madaniy kompetentligi oshiriladi.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish sohasidagi maqsadlarga erishishda ijtimoiy-pedagogik va psixologik xizmatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish talab etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda etnik-madaniy bilimlarni takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli madaniy tadbirlarni tashkil etish, suhbatlar, konferensiyalar o'tkazish, tarixiy muzeylarga, hunarmadlar mahallalariga sayohatlarni tashkil etish juda samarali vosita hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishda ularning ularning milliy ongi bilan birga bag'rikengligini ham



oshirish, millatlararo muloqotlar borasidagi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar majmuasidan muhim amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlfoydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiyachilarning ko'p millatli muhitda bolalarning sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashishi uchun zarur ijtimoiy muhitni yaratish, oila bilan hamkorlikni kuchaytirish davr talabi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning etnik madaniy bilimlarini takomillashtirishda zamonaviy tafakkuriga ega bo'lishini tarbiyalash, yangicha dunyoqarash asosida jamiyat rivojiga turtki beruvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. АШИРОВ А., АТАДЖАНОВ Ю ЭТНОЛОГИЯ (Ўқув кулланма). Тошкент — 2007
2. . Г. Н. Эшчанова. "МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ" Academic research in educational sciences, vol. 2, no. NUU Conference 1, 2021, pp. 82-85.
3. G. Eshchanova. "PARADIGMS FOR SOLVING PROBLEMS OF PRESCHOOL EDUCATION" Science and innovation, vol. 2, no. B10, 2023, pp. 424-428. doi:10.5281/zenodo.10058525
4. Пономарева О.И. Формирование основ этнопедагогической культуры будущего учителя в поликультурном социуме. Автореферат диссертации ... кандидата педагогических наук. Уфа, 1999.
5. PRIMARY EDUCATION - THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION Kalendarova Zaravshan Kalbaevna Kokand University "Education" Senior Lecturer of the Departmen. International Conference on Humanity, Education and Science London U.K December 15th 2021 conferencezone.org . 330-332.
6. INNOVATIVE MODEL OF SHAPING STUDENTS' CREATIVE THINKING SKILLS IN PRIMARY EDUCATION IN THE PROCESS OF CREATING PROBLEM SITUATIONS AND ITS CONTENT. Innovativ achievements in skience 2022. Kalendarova Zarafshon KalbaevnaSenior Lecturer, Department of Education, Kokand University, Kokand, Fergana region.
7. Shamsiddinovich M. A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO 'G 'RI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA: Musayev Ashurali Shamsiddinovich, Yangi asr universiteti o 'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 309-313.



8. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.

9. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.

10. Мусаев А. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.

11. Мусаев А. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.

12. Irisbayeva Y. Using " Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.

13. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

14. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.

15. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

